

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIM MUAMMOLARI

Duvlayev Kamil Abdurashidovich

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani,

2-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi,

Telefon:+998(94)6978041

Email:dkomil69kofe@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etish mummolari haqida fikir yritilgan. Ushbu muammolarni bartaraf etish usullari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv, ta'lim, psixologiya, psixokorreksiya.*

PROBLEMS OF INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abstract: *This article discusses the problems of introducing inclusive education in general secondary schools. Here are some ways to fix these problems.*

Key words: *inclusive, education, psychology, psychocorrection.*

Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning asosiy muammosi uning dunyo bilan aloqasining cheklanganligi, tengdoshlari va kattalar bilan aloqalarning qashshoqligi, ba'za esa ta'lim olishdagi muammolardir. Shuningdek, tengdoshlari tomonidan unga nisbatan salbiy munosabat muammosi, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi jismoniy va ruhiy to'siqlarning mavjudligi. Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarga nisbatan munosabatlar asta-sekin o'zgarib bormoqda.

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari,

intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi

lozim. Bunday bolalarni umumiy oqimga kiritish, inklyuziya strategik yo'nalishga aylanib bormoqda. Nogironlarning ta'lim olish huquqlarining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (12.10.2021 yildagi 638-son) va

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (13.10.2020 yildagi PQ-4860-son) bilan mustahkamlangan.

Inklyuziv ta'lim - bu nogiron bolani umumiy ta'lim muhitiga kiritishning bosqichma-bosqich, batafsil va juda ehtiyotkor jarayoni bo'lib, u individual xususiyatlarni hisobga oladi va bolaning kuchli tomonlariga asoslanadi. Bunday ta'limda ota-onalarning ishtiroki juda muhimdir. Ota-onalar inklyuziya ikki tomonlama mas'uliyatni anglatishini tushunishlari kerak. Ota-ona bolani maktabga "topshirish" va natijalarni kutishi kerak emas, balki maktab jamoasi bilan hamkorlik qilishlari, nogiron bolaning rivojlanishi muammolarini birgalikda hal qilishlari kerak. O'qituvchining vazifasi - o'quv jarayonini individuallashtirish, uni bolaning imkoniyatlariga imkon qadar yaqinlashtirishdan iborat. Ishni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola o'qitiladigan sinfning ota-onalari bilan uchrashuvdan boshlash kerak. Uchrashuvda ota-onalarga alohida ta'limga muhtoj bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha tavsiyalar beriladi:

- Oilada do'stona muhitni saqlash, sabr-toqat, g'amxo'rlik va bolaning faoliyatiga yumshoq munosabatda bo'lish, to'g'ri kun tartibini tuzish;

- Bolani darsda o'tilgan materialni takrorlashga o'rgatish. Kechqurun, yana bir bor bolaga eslab qolishi kerak bo'lgan narsalarni o'qib berish va uni takrorlashni talab qilmaslik.

Birinchi chorak boshida talabaning kognitiv qobiliyatlarini diagnostika qilish bo'yicha ishlar olib boriladi, shundan so'ng ushbu bola bilan ishlash uchun individual reja tuziladi. Maktab psixologi psixologik-pedagogik xaritaning tuzib chiqadi, korreksion tadbirlar belgilanadi, individual darslar o'tkaziladi. Har chorak yakunida o'quv materialining mazmunini o'zlashtirish samaradorligi nazorat qilinadi, uning natijalari bolaga emas balki uning ota-onalariga e'lon qilinadi. Sinfning tashqari mashg'ulotlar ham tengdoshlarida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan bag'rikenglik va hurmatli munosabatni tarbiyalashga qaratilib tashkil qilinadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning samarali ta'lim olishlari uchun unga beriladigan ma'lumotni taqdim etish usulini o'zgartirish maqsadga muvofiq. Maxsus shart-sharoitlarni yaratish lozim, masalan, topshiriq shaklini o'zgartirish, uni qisman bajarish. Vazifani bajarish turini ham o'zgartirish mumkin: yozma topshiriqni og'zaki yoki kompyuter simulyatorida testlarini bajarish kabi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, haddan tashqari asabiylashish va tashvishlanish tug'dirmasdan, ularning faoliyat natijalarini adekvat idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish kerak. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Har bir bolaga o'z tezligida ishlash imkoniyatini berish lozim. Ayni paytda "Tezroq!", "Siz hammani kutdirib qo'ydingiz!" kabi so'zlarni mutlaqo ishlatish mumkin emas. Bunday vaziyatda bolani keyingi vazifaga o'tkazib yuborish yoki bajarish uchun kamroq vaqt talab qiladigan vazifaga almashtirish ma'qulroq. Ish hajmi asta-sekin o'sib

borishi va individual sur'atga mos kelishi kerak. Hajmi kamroq vazifani bajarish kam tayyorgarlik ko'rgan bolaga uni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida o'zini umumiy ishda ishtirok etayotgandek his qilishiga yordam beradi. Hamma bilan ishni boshlash va tugatish qobiliyati shunday mashq qilinadi. Tezlikni individuallashtirish maktabda bolaning psixologik qulayligi uchun zarur shartdir:

- nazorat ishini yozishda "qo'shimcha vaqt berish;
- zarur hollarda nazorat ishini qayta yozishga ruxsat berish;
- ishni belgilangan muddatdan kechroq qabul qilish;
- bolaning uzoq vaqt davomida boshqalar bilan solishtirmasdan, uning rivojlanishini baholash.

2. Dastlab guruhlarda ishlash usulidan to'liq foydalanib bo'lmaydi, lekin uning elementlarini bosqichma-bosqich joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda yetarli darajada o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish uchun guruh tarkibini o'zgartirish zarurligini hisobga olish muhimdir. O'zaro nizolarga yo'l qo'ymaslik va sinfning hamkorlik va hamjihat muhitini buzmaslik uchun bolalar guruhlari o'rtasidagi raqobatni deyarli butunlay yo'qotish zarur.

3. Darsda faoliyat turlari va ish shakllarini muntazam ravishda o'zgartirish barcha bolalarga istisnosiz stressni bartaraf etish va e'tiborni kuchaytirish imkonini beradi.

4. Stressdan xalos bo'lish uchun turli xil pedagogik "sirlar" mavjud, masalan :

- bolalarga darsda bir muddat qulay vaziyatni egallashga ruxsat beriladi: tik turgan holda ishlash, agar xohlasa, ish joyini o'zgartirish; oyoq barmoqlarida yurish, bir oyoqqa turish;
- o'qituvchi "bolaning orqasida turishi", qo'lini yelkasiga qo'yishi, unga bajarayotgan vazifasidan chalg'ishiga ruxsat berish mumkin.

5. Bolaning kognitiv faoliyatga bo'lgan tabiiy ehtiyojiga rioya qilish, uni yuklamaslik lozim. Bolani qiziqitirmaydigan yoki murakkabroq vazifalarni bajarishni talab qilish ehtiyotkorlik bilan va ma'lum dozada bajarilishi kerak, chunki doimiy stress somatik yoki psixologik muammolarga olib keladi.

Maktab rahbariyatining asosiy vazifasi bolaning maktabga moslashishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari: o'qituvchilar, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi muloqot va o'zaro munosabatlar muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashdir. Ta'lim muassasasi mutaxassislari jamoasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim: uzluksizlik, harakatlarni muvofiqlashtirish, tizimlilik, korreksion tadbirlarning muntazamligi, maqsadliligi va bosqichma-bosqichligi. Agar o'qituvchining vazifasi materialni eng qulay shaklda tayyorlash va taqdim etish bo'lsa, psixologning vazifasi muammoni hal qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirishdir. Uning vazifalaridan biri bolani ijtimoiylashtirish, unda o'ziga bo'lgan ishonch hissini, muvaffaqiyatga erishish va unga intilish zaruratini uyg'otishdir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni istardimki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabda va sinf xonalarida o'zlarini erkin his qilishlari uchun qulay sharoitni yaratish, ular bilan bevosita ishlaydigan malakali pedagog xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, uslubiy qo'llanmalar va yo'riqnomalarni ishlab chiqish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Ammo rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish va integratsiyalashuvi-ning eng maqbul yo'llari, vositalari, usullarini izlab topish va amalga oshirish har bir insonning vazifasidir. Faqat birgalikdagi sa'y-harakatlariga alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolaning oq va qora dunyosini yorqin ranglar bilan to'ldirishga yordam beradi. Bu dunyoni biz yaratmaganmiz va yarata olmaymiz ham, lekin muhtojlarga va ehtiyojmandlarga, g'amxo'rlik qilish orqali uni yaxshi tomonga o'zgartirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.R.Mo'minova. Maxsus psixologiya. Noshir 2012 y. ISBN 978-9943-4083-2-6
2. Vygotskiy, L.S. Psixologiya. 1991. No 4: Bolaning madaniy rivojlanishi muammosi (1928). [Matn] - M.: "Bustbust", 172 - 230 b.
3. T.M.Adizova (2006). Psixokorreksiya. Toshkent "Iqtisod-moliya" 2006 y.
4. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.